


ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
ISSN 2992-9229



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2024 №2
(4)

Samarqand-2024


ISSN 2992-9229




TURKLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2024



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Juliboy ELTAZAROV
f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Roxila RUZMANOVA
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);

Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Akmal AHATOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Suyun KARIMOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Azamat PARDADEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Musa YULDASHEV – f.f.n., professor (O‘zbekiston);

Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor (O‘zbekiston);

Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Hamidulla DADABOYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Hotam UMUROV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);

Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);

Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);

Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);

Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);

Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);

Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);

Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);


Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);

Mas’ul muharrir: **PhD Zokir BAYNAZAROV** (O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV** (O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибай ЭЛТАЗАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф-м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муродкасим АБДИЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент (Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Хамидулла ДАДАБОЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуслам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор (Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор (США);

Хайрунисса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – PhD (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD Зокир БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ** (Узбекистан)



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);
Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);
Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);
Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)
Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);
Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);
Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Khamidulla DADABOEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);
Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);
Prof. Dr. Abduselam ARVAS (Turkey);
Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);
Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);
Prof. Dr. Temur KOJAOGLU (USA);
Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);
Prof. Dr. Varis CHAKAN (Turkey);
Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);
Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);
Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA (Uzbekistan);
Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);
Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Managing editor: Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV (Uzbekistan)

Technical staff: Rakhmatulla SHOKIROV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNÖV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNÖV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNÖV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hamidulla DADABOYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV (Özbekistan)

Teknik Personel: Rahmatullah ŞOKİROV (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ
“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA OID TADQIQOTLAR

Qosimjon SODIQOV

«DEVONU LUG‘ATI-T-TURK» MATNIDAGI HARAKAT BELGILARI VA TURKIY SO‘ZLARNING O‘QILISHI MASALASI9

Hamidulla DADABOYEV

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA QORAXONIYLAR DAVRI SAVDO-MOLIYA ISTILOHLARI TIZIMINING AKS ETISHI19

Shuhrat SIROJIDDINOV, Zulxumor XOLMANOVA

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING ADABIY-MA‘RIFIY QIYMATI27

Jo‘ra XUDOYBERDIYEV

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING O‘ZBEK TARJIMONLARI VA ULARNING TARJIMALARI NASHRLARI HAQIDA35

Baxtiyor ABDUSHUKUROV

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI O‘G‘UZCHA SO‘ZLAR49

Vazira ALIMBEKOVA

JANUBI-SHARQIY ANDIJON LINGVOAREALI LEKSIKASINING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA MUNOSABATI58

Alima PIRNIYAZOVA

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘AT-IT-TURK” ASARI VA QORAQALPOQ TILI71

Umurzoq JUMANAZAROV

FITRAT “DEVONU LUG‘ATIT TURK” TADQIQOTCHISI78

Shuxrat ABDULLAYEV

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”NING O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILI LEKSIKASIDA TUTGAN O‘RNI86

Ahrorbek AZIZOV

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA XALQ O‘YINLARI TALQINI93

Sarvar QO‘LDOSHEV

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” DA DAVLATCHILIK BELGILARI103

Ozoda SHARIPOVA

“DEVONU LUG‘OT-AT TURK” ASARIDA KELTIRILGAN VATAN VA VATANPARVARLIK MAVZUSIDAGI PAREMALARNING SEMANTIK TADQIQI111

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Sirojiddin XO‘JAQULOV

TOJIK MA‘RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTIDA TURK TANZIMAT DAVRI ADABIYOTINING TA’SIRI117

Osman EMIN

BALKAN TÜRK EDEBİYATI’nda TÜRK DÜNYASI128

Muso YULDASHEV

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN YANGI O‘ZBEK ALIFBOSI VA TURK-RUN YOZUVI TARIXIGA BIR NAZAR139

Shohista JUMANOVA

CHO‘LPON POETIKASI (UNING NASRIY ASARI : “KECHA VA KUNDUZ” ASOSIDA)145

TURKIY AXALQLARNING IJTIMOY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Мирвари ИСМАЙЛОВА

КУЛИНАРНЫЙ КУЛЬТ АЗЕРБАЙДЖАНСКОГО НАРОДА В КОНТЕКСТЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МАТЕРИАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ152

Oybek BARZIYEV

HIJRON MAVZUSI BILAN BOG‘LIQ AN‘ANAVIY POETIK TURKUMLAR (*Milliy uyg‘onish davri o‘zbek, qozoq, arman she‘riyati misolida*)162

KITOB TANITUVI / KITAP TANYŞDYRYŞ / BOOK REVIEW168



AZIZ MUSHTARIY!

Qadim o‘tmishga ega bo‘lgan har bir xalqning madaniyat va sivilizatsiya hamjamiyatida o‘z izini qoldirgan asarlar mayjud. Shu jihatdan turkiy sivilizatsiyaning madaniy kodlarini ochib beruvchi va har o‘qilganida yangidan yangi ma’nolar olamini ochuvchi turkologiyaning durdona asarlaridan biri “Devonu Lug‘otit Turk”dir. Ma’lumki, YUNESKO Bosh Assambleyasining 42-sessiyasida qabul qilingan qaror bilan 2024-yil Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu Lug‘otit Turk” asari yozilganining 950 yilligi sifatida nishonlash belgilandi. Shu nuqtai nazardan, Ilmiy kengashimiz qalam va minnatdorchilik qarzi sifatida jurnalimizning 4-sonini Turk dunyosining bu noyob xazinasini yana bir bor kashf etish va uning muallifini hurmat bilan yodga olish maqsadida uni maxsus son sifatida nashr etishga qaror qildi.

Bu sonda “Devonu Lug‘otit Turk”da xalq o‘yinlari, Janubi-Sharqiy Andijon leksikologiyasining “Devonu Lug‘otit Turk” bilan aloqasi, Qoraxoniyilar davri savdo-iqtisodiy leksikasining devonda aks ettirilishi, devonning o‘zbekcha tarjimalari va tarjimonlar, devon matnidagi harakat belgilari va turkiy so‘zlarni o‘qish masalalari, devondagi davlatchilik tamoyillari, asarning o‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikologiyasidagi o‘rni, vatan, vatanparvarlik haqidagi paremalarning semantik tahlili, kitobning adabiy-pedagogik ahamiyati, o‘g‘uzcha so‘zlar, tojik va jadid adabiyotida turk tanzimat davri adabiyotining ta’siri mavzusiga oid maqolalar o‘rin olgan.

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

Each nation with a rich history has works that have profoundly influenced its cultural and civilizational landscape. Among such treasures in Turkology is the masterpiece Devonu Lugatit Turk, which unveils the cultural codes of Turkish civilization and reveals new layers of meaning with every read. In recognition of its significance, the 42nd UNESCO General Assembly designated 2024 as the 950th anniversary of Mahmud Kashgari’s Devonu Lugatit Turk. In celebration, our Scientific

Council has decided to dedicate the 4th issue of our magazine to honoring this unparalleled work and its esteemed author.

This issue will explore various topics related to Devonu Lugatit Turk, including traditional folk games, the relationship between Southeast Andijan lexicology and the divan, reflections of the trade and economic lexicon of the Karakhanid period, Uzbek translations and their translators, interpretations of Turkic words in the divan, principles of statehood, and semantic analysis of poems focused on homeland and patriotism. Also featured are articles on the book's literary-pedagogical value, the presence of Ugz words, and the influence of Turkish Tanzimat-era literature on Tajik and contemporary literature.

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

Kadim geçmişi olan her milletin kültür ve medeniyet camiasına damgasını vurmuş eserleri vardır. O bakımından Türk medeniyetinin kültürel kodlarını ortaya koyan ve muhtevasıyla her okunuşa yeni açılımlar sağlayan Türkolojinin başyapıtlarından biri de asırlar boyu elden ele dilden dile dolaştırılan *Kitâbu Dîvânu Lugâti't-Türk* adlı eserdir. Bilindiği üzere UNESCO Genel Kurulu'nun 42. oturumunda alınan kararla 2024 yılı, Kâşgarlı Mahmut'un *Dîvânu Lugâti't-Türk* adlı eserinin yazılışının 950. yıl dönümü olarak kutlanmaktadır. Bu kapsamında Bilim Kurulumuz, bir kalem ve gönül borcu olarak dergimizin 4. sayısını; Türk dünyasının bu eşsiz hazinesini bir kez daha keşfetmek ve müellifini saygıyla hatırlamak adına özel sayı olarak yayımlamaya karar vermiştir.

Bu sayıda “Dîvânu Lugâti't-Türk'te halk oyunları, Güneydoğu Andican leksikolojisinin Dîvânu Lugâti't-Türk ile ilişkisi, Karahanlılar Dönemi ticari-iktisadi istilahların dîvâna yansımaları, dîvânın Özbekçe tercümeleri ve tercümanlar, dîvân metnindeki hareket fiilleri, işaretler ve Türkçe sözlerin okunma sorunları, dîvânda devletçilik prensipleri, eserin Özbek ve Karakalpak dilleri leksikolojisindeki yeri, dîvânda geçen vatan ve vatanperverlik konularındaki paremilerin (atasözlerinin) semantik tahlili, kitabın edebî ve pedagojik kıymeti, Oğuzca sözler, Tacik ve Cedit Edebiyatı'na Tanzimat dönemi Türk Edebiyatı'nın etkisi, Türk Bitig Taşları'nın Semerkant vilayeti Karluk şiveleriyle münasebeti, Çolpan'in poetikası, hicran temasıyla ilgili geleneksel poetik birlilikler” gibi konu başlıklarına yer verilmiştir.

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

У каждого народа с древней историей есть произведения, оставившие след в общности культуры и цивилизации. В этом отношении раскрываются культурные коды турецкой цивилизации, шедевры тюркологии, открывавшие мир новых смыслов каждый раз, когда его читают, одним из таких произведений можно назвать - «Диван лугат-ат-турк». Как известно на 42 сессии Генеральной Ассамблеи ЮНЕСКО принято решение о праздновании 950-летия сборника тюркских наречий Махмуда Кошгари «Диван лугат-ат-турк» в 2024 году.

С целью почтить память великого ученого наш научный совет решил посвятить 4 -й номер журнала этому уникальному сокровищу турецкого мира и опубликовать его в виде специального выпуска. Статьи этого сборника посвящены народным играм, представленным в «Диван лугат-ат-турк»; связь Южно-Шарийской Андижанской лексикологии с «Диван лугат-ат-турк», отражению в торгово-экономической лексике эпохи Карабанидов в словаре; узбекским переводам и переводчикам словаря, принципам государственности, месту узбекской, каракалпакской лексики в произведении; семантическому анализу паремий о родине и патриотизме, значению литературно-педагогической составляющей книги; исследованию огузских слов в таджикской и джадидской литературе; тюркской литературе периода танзимата.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI HAQIDA!

Eng qadimgi turkiy til tadqiqotchilaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariy, o‘zining yuksak lingvistik bilimlari bilan turkologiyaga beqiyos hissa qo‘shtagan. U Turk dunyosining til, adabiyot va umuman madaniyat jihatdan Markaziy Osiyodagi eng yorqin davri hisoblangan Qoraxoniylar davrida yashagan. Madrasayi Hamidiyye va Madrasayi Sajiyyeda tahsil olgan olim, turk dunyosiga ikkita noyob xazinani taqdim etgan bo‘lib, bular “Devonu lug‘otit Turk” va “Javoqir un-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asarlaridir. “Devonu lug‘otit Turk”ning asl qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Dunyodagi yagona nusxasi Muhammad b. Abu Bakr ibni Abulfath Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. Bu nusxani Ali al-Emiriyo qo‘lga kiritgan. Koshg‘ariyning devonda tilga olingan, ammo bugungi kungacha yetib kelmagan “Javoqirun-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asari esa yo‘qolgan. Xuddi bir paytlar turklar orasida tarqalgan “Buyuk Xon Ato Bitig” va “O‘g‘uznomalar” asarlari kabi bu kitob ham turkologiyaning yo‘qolgan asarlaridan bo‘lib, bugungi Ali Amiri Afandilarni, haqiqiy kitob do‘sclarini kutmoqda...

“Devonu lug‘otit Turk” asari Qoraxoniylar davri turk olimi va yozuvchisi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1072-1074-yillar orasida yozilgan. O‘z davrining eng mashhur olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg‘ariy bu asarni yozgan davrida arab tilining turk tilidan ko‘ra mavqeい yuqori til ekanligi iddaosiga qaramay, turk tilining boy til ekanligini isbotlash maqsadida “Lug‘at” kitobi uslubida yaratgan. Bu yuksak til salohiyatining ikkinchi misolini buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tomonidan turk tilining boshqa tillardan kam emasligini dalillash maqsadida yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari misolida ko‘rish mumkin. Xullas, Abdulla Oripov e’tirof etganidek, Temurning qilichi yetmagan joyga qalami bilan yetgan, jang maydonida emas, balki ilm-fan va tafakkur yo‘lida kurash olib borgan ikki buyuk alloma sifatida butun turk dunyosining diqqat markazidadir.

Koshg‘ariy yillar davomida turk mamlakatlarini kezib, o‘zi ilmiy sohalarda tadqiqot olib borgan va so‘zdan tortib etimologiyasigacha ko‘rgan deyarli barcha madaniy elementlarini yozib olgan. Koshg‘ariy o‘z so‘zlarini bilan: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqizlarning (qirg‘izlarning) shaharlarini, qishloq va yaylovlarni ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim.” -deydi. Binobarin, Koshg‘ariy turk qabilalari, madaniyati va urf-odatlari haqida katta hajmli material to‘plash orqali arab muhitiga turk tili va madaniyatini olib kirish, turk tili haqida yozgan grammatikasi bilan arablarga turk tilini o‘rgatishni maqsad qilgan. Shunday qilib, devon; arablarga turk tilini o‘rgatish va turk tilining arab tili kabi boy til ekanligini va undan kam emasligini ko‘rsatish maqsadida yozilgan ilk turkcha lug‘at sifatida ma’lum.

Devonu Lug‘otit Turk madaniyatimiz va sivilizatsiyamizni ko‘p jihatdan aks ettirish nuqtai nazaridan turkiylikning asosiy asarlaridan biridir. Kitobning yaratilishida turkiy so‘zlar arab qoidalariga ko‘ra tartibga solingan va arabcha muqobilari bilan ma’nosini topgan. Koshg‘ariy bu asarni yozganidan uch yil o‘tib, Abbosiylar xalifasi Muqtadiy Billohga taqdim etadi. Uning bu xatti-harakatini turkiy tilning ustunliklarini davlat tomonidan ma’qullah sifatida baholash mumkin. Bundan uch yuz yil o‘tib, lug‘at ilk bor Kilisli Rifatning tuzatishi bilan nashr etilgan; 1943-yili Turk tillari jamiyati a’zosi Besim Atalay tomonidan arab harflari lotin harflarida o‘z muqobilligini topgan. Devonning o‘zbek nashrlari bo‘yicha ilk tadqiqotlar 1940-yillarda boshlangan. O‘zbekistondagi nashrlar haqida batafsil ma’lumotni ushbu sondagi maqolalardan olishingiz mumkin.

Koshg‘ariy madrasada tahsil olgani uchun o‘qigan dars materiallari formatini o‘zlashtirib, ijodida mumtoz arab kitoblaridagi usulga amal qilgan. Boshqacha aytganda, Devonu Lug‘otit Turk nomli asar; Muqaddima hamd, salovat va salom bilan boshlanib, ish oxirida duo bilan yakunlanadi. Asar nafaqat lug‘at, balki hikmatlar, she’rlar, ayot va hadislar, turkiy qabilalarga oid bel gilar, sheva farqlariga oid muhim topilmalar, lingvistik materiallar mazmuni bilan ensiklopediya hisoblanadi. Buyuk turk olimi Mahmud Koshg‘ariyni asar yozilganining 950 yilligi munosabati bilan hurmat bilan yod etamiz.

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

TOJIK MA'RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTIGA TURK TANZIMAT DAVRI ADABIYOTINING TA'SIRI

XO'JAQULOV Sirojiddin Xolmahmatovich

Samarqand davlat universiteti

Tojik tili va adabiyoti kafedrasi professori,
flologiya fanlari doktori

E-mail: sirojiddinxujaqulov1976@gmail.com

ORCID [0000-0002-6974-1988](https://orcid.org/0000-0002-6974-1988)

Annotatsiya: Maqolada XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari adabiyotidagi lirik janrlarning shakllanish tamoyillari, ulardagi shakliy o'zgarishlar, bu davrdagi mumtoz poetik me'yirlari va uning evolyutsiyasi, mazkur davr adabiy oqimlarida badiiy tafakkurning rivojlanishi, an'anaviy lirik janrlarning kompozitsion o'zgarishlari, tojik va o'zbek ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotida turk tanzimat davri adabiyoti, Eron mashrutiyat davri adabiyoti, afg'on rushanfikrlik adabiy yo'naliishlarining ta'siri va ularning umumiy tipologik xususiyatlari qiyoslanadi va yoritiladi.

Kalit so'zlar: *adabiy oqim, lirika, ma'rifat, jadidchilik, lirik she'rlar turkumi, tanzimat, mashrutiyat, rushanfikrlik, poetika, she'riyat.*

THE TURKISH LITERATURE OF THE TANZIMAT PERIOD AND THE TAJIK ENLIGHTENMENT LITERARY FLOW

Abstract: In the article, the structure of lyric genres in the literature of the peoples of Central Asia in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, the principles of its formation, poetic standards and their evolution during this period, the development of artistic thinking in the literary flow of this period, compositional changes of traditional lyric genres, Tajik and Uzbek enlightenment and Jadid literature and the literature of the Turkish Tanzimat period, the literature of the Iranian Mashrutiyat period, and the general typological features of the literary trends of the Afghan literary enlightenment are compared and highlighted.

Key words: *literary flow, lyrics, enlightenment, jadidism, series of lyrical poems, tanzimat, mashrutiyat¹, intellectualism, poetics, poetry.*

TANZIMAT DÖNEMİ TÜRK EDEBİYATININ TACİK AYDINLANMA EDEBİ AKIMINA ETKİLERİ

Özet: makalede 19. yüzyılın ikinci yarısı ile 20. yüzyılın başlarında Orta Asya halklarının edebiyatındaki lirik türlerin yapısı, oluşum ilkeleri, şiirsel standartları ve bu dönemdeki gelişimi, bu dönemin edebî akımlarında sanatsal düşüncenin gelişimi, geleneksel lirik türlerin kompozisyon değişimleri hususunda bilgiler beyan edilmiştir. Bunun yanı sıra, Türk Tanzimat dönemi ve İran Meşrutiyet dönemi edebiyatının Tacik ve Özbek aydınlanması ve Cedit edebiyatına etkileri analiz edilmektedir.

Anahtar kelimeler: *edebî akım, lirik, aydınlanması, ceditçilik, lirik şiirler dizisi, tanzimat, meşrutiyet, entelektüalizm, poetika, şiir.*

¹ Iranian literary process, enlightenment

Ma’rifatparvarlik va jadid adabiyoti hamda uning janr xususiyatlari yuzasidan jahondagi bir qator ilmiy markazlarda, xususan, Columbia University, Indiana University (USA), Humbold Universitat (Germany), Tokio University (Japan), İstanbul Üniversitesi (Turkiya), Balx davlat universiteti (Afg’oniston), Azerbaycan milli elmler akademiyasi Nizami adina ədəbiyyat İstitutu (Ozarbayjon); Institut Vostokovedeniya, Vostochnoy fakultet pri SPBGU, Institut vostochnox rukopisey v Sankt-Peterburge (Rossiya); A.Ro’dakiy nomidagi til va adabiyot instituti, Tojikiston milliy universiteti, Xo’jand davlat universiteti (Tojikiston), O’zbekiston Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O’zbek adabiyotshunoslari B.Qosimovning “Mirmuxsin Fikri i ego literaturnaya sreda”, U.Dolimovning “Jizn i tvorchestvo uzbekskogo poeta-prosvititelya Ibrata”, P.Musamuhamedovning “Jizn i tvorchestvo Fikiri” kabi tadqiqotlari XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi ma’rifatparvar adiblarning hayat yo’lini tadqiq etishdagagi jiddiy qadam hisoblanadi. I.G’aniev va N.Afoqovalar tomonidan yaratilgan “Jadid adabiyoti va adabiyotshunosligi bibliografiyasi”da 5307 ta mahalliy hamda xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari jamlangan. Bu esa, mustaqillik davrida ma’rifatparvarlik va jadid adabiyoti tadqiqi yangi bosqichga ko’tarilganligidan dalolatdir. Bu borada B.Qosimov, N.Karimov, G’.Karimov, E.Karimov, O.Sharofiddinov, H.Boltaboev, Sh.Rizaev, Sh.Yusupov, U.Dolimov, N.Jabborov, R.Inomxo’jaev, I.G’aniev, N.Afoqova, U.Hamdam, G’.Mahmudov, B.Muxiddinova, M.Tojiboeva kabi o’zbek tadqiqotchilarining ishlari muhim o’rin tutadi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlari adabiyotining o’ziga xosligini to’liq idrok etish, mahalliy xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, adabiy oqimlar, tarixiy tendensiyalar, yangi adabiy jarayon, badiiy asarning mazmundorligi, tematik g’oya, poetik shakl va mazmun takomili, badiiy asar tili va uslubi, janr xususiyatlari, Movarounnahr, Xuroson va qadimgi Turonning mahalliy xalqlari, ayniqsa, qardosh tojik va o’zbek hamda Eron va afg’on xalqlari adabiyotining o’zaro mushtarak va tipologik xususiyatlarini tadqiq etish jarayoni yangicha tamoyillar va yondashuvlarni taqozo etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O’rta Osiyo hududidagi uch davlat - Buxoro amirligi, Qo’qon va Xiva xonligi siyosiy va iqtisodiy zaifligi, dunyodan ajralib qolgani, boshqaruva tizimining zamondan ortda qolishi, uzoq muddat davom etayotgan ma’naviy va siyosiy turg‘unlik, o’zaro ichki nizolar, iqtisodiy inqiroz,adolatsizlik va zulmning kuchayib borishi, inqirozga sabab bo’lgan edi. Mintaqaning bu tarixiy davri xorijlik olimlar nazaridan ham chetda qolmagan. Tarixchi olim J.Kunits ziddiyatli davr haqida bunday yozadi: “Amir hukmdorligi daxlsiz va mutlaq edi. Barcha davlat muassasalari rahbarlari, viloyat va tuman hokimlari u tomonidan tayinlanar edi va ular faqat amirga bo’ysunar va hisobot berar edi” [7,23]. Anglo-amerikalik tarixchi Ueller fikricha: “Buxoroning ma’muriy tizimi juda sodda, hukumatning asosiy vazifasi soliq yig’ishdir” [15,43]. Ingliz olimi Meri Xoldsvordning “Turkestan in the nineteenth century” (“XIX asrda Turkiston”) [14,10] risolasida esa, Hindiston, Misr, Eron va Afg’onistondan O’rta Osiyoning eng yirik shaharlariga katta miqdordagi tijoriy mahsulotlar bilan bir qatorda, turli xil nashrlar, xat va gazetalar yetkazilgan. Bu esa hayotning barcha sohalarida turli xil o’zgarishlar, adabiy va madaniy jarayonda yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishiga zamin tayyorlagan.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Rossiya imperiyasining O’rta Osiyon bosib olishi “buyuk o’yin” mafkurasining o’ziga xos bir ko’rinishi, anglo-rus raqobati natijasi edi [7,13]. Bu

davrga doir eng ishonchli manba ushbu zamindan yetishgan shoimu adiblarning tarixiy, ilmiy-adabiy asarlari hisoblanadi. Jumladan, Ahmad Donish asarlaridagi asosiy printsipga ko‘ra, “viloyatdorlik va hukumat boshqaruvining asl mohiyati ilm va amaldadir”. Uningcha, faqat aql davlat boshqaruvining adolatli poydevori va mezonlarini mustahkamlaydi: “Aksincha g‘azab va shahvat aqlni tasxirlovchi manba bo‘lmasligi lozim. Zero, adolat aqlning kamolotidan vujudga keladi” [2,54].

Yangicha ma’rifatparvarlik va jadid adabiyoti shakllanishining ikki omilini ajratib ko‘rsatish zarur:

1. Ijtimoiy-tarixiy vaziyat taqozosi o‘laroq jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh etish zarurati yetilgani.

2. Adabiyotning ijtimoiylashuvi, xalq hayotiga yaqinlashuvi.

M.Rajabiy fikricha: “Jadidchilik uchun qadimiya madaniyat xalqni ma’naviy qoloqlik va turg‘unlikdan xalos etish hamda g‘arbona dunyoviy bilimlar fazosi bilan tanishtirish vositasi edi. Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan G‘arb olimlarining so‘nggi asrlardagi fikriy yutuqlari Sharq mutafakkirlarining ilmiy ishlarini qayta-qayta o‘qib-o‘rganish va ularning izlanishlarini davom ettirish orqali erishilganini va bu kabi taraqqiyatparvarlik esa aslida ham haqiqiy Islomga zid kelmasligini ko‘rsatdi” [9,33]. Aynan shu tavajjuh va ta’sirlar orqali Evropaning ayrim mamlakatlarida, xususan yaqin Sharq mamalakatlaridan Turkiya va Eron davlatlari san’at va madaniyati rivojlandi, ilm-fan yuksaldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yangicha ma’rifatparvarlik harakati O‘rta Osiyoda ijtimoiy harakat sifatida, keyinchalik adabiy jarayon sifatida muhim mavqega ega bo‘ldi. Shu tariqa, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, rus-yapon urushi voqealari, 1905-1907 yillardagi inqiloblar, Turkiya, Eron, Serbiya, Albaniya, O‘rta Osiyo mintaqalaridagi inqilobi harakatlar, fan va madaniyatning rivojlanishi, ta’lim va tarbiya, maktab va ma’rifatga bo‘lgan e’tibor, davriy matbuotning yuzaga kelishi, badiiy ijoddagi yangicha yondashuvlar, yangicha ma’rifatparvarlik va jadidchilik g‘oyalaringin yoyilishi, Osiyodagi mahalliy xalqlar orasida; turk, tojik, fors, arab, rus, fransuz, nemis, ingлиз tillarining keng miqyosda e’tibor qozonishi, mahalliy xalqning ma’naviy va ma’rifiy yuksalishida alohida ahamiyat kasb etdi.

Evropa mamlakatlarida yuzaga kelgan inqilobi harakatlarning kuchayishi, ayniqsa, 1905-1907 yillardagi Rossiya inqilobi, Sharqiy mamlakatlarning, xususan, Turkiya va Eronda kapitalistik tuzumning rivojlanishiga bo‘lgan ijobiy moyilliklar, XIX asrning birinchi yarmida Eron mashrutiyat davri siyosiy-ijtimoiy harakati, XIX asrning 70-90-yillaridagi Turkiyadagi tanzimat davri inqilobi-siyosiy, adabiy oqimlar va keyinchalik Usmonli Turkiyadagi “yosh turklar”ning ijtimoiy-ma’rifiy harakatlari, O‘rta Osiyoda milliy uyg‘onishning yuzaga kelishi XX asr boshlaridagi yangi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy tendensiyalar shakllanishiga zamin yaratdi.

XX asrning boshlarida, ayrim ob’ektiv va sub’ektiv omillar, jumladan, Russiyada Ismoil Gaspirinskiy asos solgan jadidchilik g‘oyalari ta’siri ostida, milliy ozodlik harakatlari, mahalliy xalqlarning ilmiy, adabiy, madaniy va ijtimoiy hayotida tub o‘zgarishlar, milliy tiklanish va tarixiy o‘zlikni anglash g‘oyalari avj oldi. Shu asosda, Buxoroda jadidchilik harakati ta’siri ostida “javonbuxoriyon” (buxorolik yoshlari) milliy-tiklanish harakati yuzaga keldi. Javonbuxoriylarning asl g‘oyaviy maslagi taraqqiyot, ma’rifatni yuksaltirish, milliy nashrlarni yo‘lga qo‘yish edi. Harakat a’zolari asosan yosh jadidlardan tarkib topgani bois, Turkiyaning “yosh turklar” jamiyatiga taassub qilib, o‘zlarini “javonbuxoriylar” deb atadilar [13,70]. Ushbu tashkilot va uning

a’zolari turli manbalarda: “yosh mutafakkirlar”, “jadidlar”, “islohotchilar”, “yangi fikrlovchilar”, “taraqqiyparvar”, “ma’rifatparvar”, “erkin fikrlovchilar” tarzida qayd etilgan.

Tabiiyki, mustamlakachi davlat tobe’ millat vakillarining birlashuviga, o‘z milliy manfaatlari yo‘lida islohotlar qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu - mustamlakachilikning xarakterli xususiyati. Bu o‘rinda eng yomoni millat ziyolilarining bo‘linishi edi. Fitrat jadid va qadim mojarosining sabablarini quyidagicha tushuntiradi: “Buxoroning najib millatidan yashirin emaski, jadid va qadim o‘rtasidagi bahs va munozaralar va ma’naviy munoqashalar to‘rt-beshta millat xoinining xatolik va fasodkorlik ishidan boshqa narsa emas. Bu illat bizning muqaddas vatanimizni to‘liq qamrab olgan va butun boshli bir jamiyatni ikki firqa va ikki mazhabga ajratdi va ularning har birini ikkinchisining dushmaniga aylantirdi” [47,7].

Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich 1910-yilda “XX asr boshlarida Turkistonda mutlaqo yangi adabiyot paydo bo‘lgan”ini ta’kidlaydi. Olim bu yangilikni drama janrining yuzaga kelishi bilan bog‘laydi. Lekin chuqurroq razm solinsa, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida mumtoz adabiyotning an’anaviy va barqaror badiiy-estetik kanonlari o‘rniga, g‘oyaviy mundarija, shakl unsurlari va ijodiy uslub jihatidan yangi shakl va mazmundagi adabiyot vujudga kelgani kuzatiladi. Qisqa bir vaqt ichida adabiyot yangilandi. Poetik shakl va mazmun, poetik obraz va badiiy asar tili, ijodiy uslub va tamoyillar o‘zgardi. Bularning barchasi yuqorida ko‘rsatilgan omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Afsuski, uzoq yillar davomida jadidchilik harakati adabiyotshunoslik tarixida salbiy hodisa sifatida baholandi. Yaqin vaqtlargacha bu harakat “mahalliy tijoriy burjua harakati” va uning a’zolari “millatchi ziyolilar” deb qaralgan. Bunday yondashuv tarixni soxtalashtirish yoki nigilik qarash natijasi edi. Aslida, jadidchilik tojik adabiyotida shaklan va mazmunan yangilanish, adabiyotning ijtimoiylashuvi va xalq hayotiga yaqinlashuvi omili sifatida alohida bir tarixiy davrning yuzaga kelishini ta’mindadi. M.Shukurov bu jarayonni quyidagicha ta’riflaydi: “Ziyoli ma’rifatparvarlar qadimgi va o‘tmish tuzumning konservatorlariga nisbatan o‘zlarini jadidlar deb atadi va jamiyatni yangilashni, millatni taassublar, bid’atlar, jaholat va xurofotlar girdobidan chiqarib, yangi tarixiy bosqichga yo‘naltirishni xohladi, toki xalq va millat yangi asrning zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lsin” [196,327].

Darhaqiqat, millatni qoloqlik va jaholat changalidan qutqarish, dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasiga yuksaltirish jadidchilikning asosiy maqsadi edi. Shuning uchun ular yagona “najot yo‘li – ilm” deb tushunishgan. **“Ilm”**, **“ma’rifat”**, **“bilim”**, **“maorif”**, **“aql”**, **“irfon”**, **“irshod”**, **“islohot”**, **“tajaddud”**, **“taraddud”** mazkur davr she’riyatida eng muhim istilohlar, bu davr badiiy asarlarining g‘oyaviy asosi, javhari hamda eng muhim xossalardan hisoblanadi.

Agar XIX asrda badiiy-estetik tafakkur rivoji Buxoro adabiy muhiti bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridan G‘arbiy Evropa va Rossiya ilm-fani, sivilizatsiyasi ta’sirida Samarqand ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayotning markaziga aylana bordi. Azaldan she’r va adabiyot diyori bo‘lgan bu mintaqada adabiyot va san’atning ikki asrlik sukutidan keyin ma’naviy uyg‘onish yuz berdi. Bu boradagi eng muhim omil, avvalambor, davrning muhim tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqealaridir. Samarqand har doim Sharqda adabiy va ilmiy markazlardan biri bo‘lgani sababli bu yerda adabiyot, san’at va insoniyat sivilizatsiyasining mustahkam ildizlarini qayta tiklash, uning yangi qirralari va yo‘nalishlarini bunyod etish ishlari jadallahdi. Yuksak saviyadagi badiiy asarlar bilan davr voqeligining eng muhim belgilari va xususiyatlarini ifoda etgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sipandiy Samarqandiy, Faxriddin Rojiy, Saidahmad Siddiqiy Ajziy, Shakuriy Samarqandiy, Hoji Muin, Naqibxon Tug‘ral, Saidahmad Vasliy, Ibrohim Jur’at, Abdulg‘ani Javdat, Tamhid va boshqa ijodkorlar

adabiy hayot rivojiga munosib hissa qo’shdi. Keyinchalik Abdurrauf Fitrat va Sadriddin Ayniylar ham ushbu adabiy muhitda faoliyat ko’rsatdi. S.Sa’dievning ta’kidlashicha, bu davrda Samarqand adabiy muhiti nafaqat mazmun va g‘oyaviy mundarija takomili jihatidan Buxoro adabiy muhitiga tenglashdi, balki ayrim xususiyatlari ko’ra undan yuqoriq maqomga ega bo’ldi.

XX asr boshlari tojik milliy uyg‘onish adabiyotida yangi adabiy janrlar, poetik shakl va mazmun yangilanishi, badiiy tafakkur tadriji masalasida dunyo xalqlari, shu jumladan Rossiya va Evropa adabiyotining eng ilg‘or an’ analari, xususan, “Turk tanzimat”, tatar ma’rifatparvarlik, Eron “mashrutiyat davri”, afg‘on “ro’shanfikrlik” hamda o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotlari bilan o‘zaro mustahkam aloqada bo‘lgan va o‘z navbatida, ulardan bahramand bo‘lgan. Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida barcha Sharq mamlakatlarida yangi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining paydo bo‘lishi bevosita sifat jihatidan yangi tipdagi badiiy adabiyotning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Movarounnahrda, jumladan tojik va o‘zbek xalqlari hayotida ma’rifatparvarlik jarayoni bevosita o‘zining ustuvor, barqaror tarixiy ildizlariga, manbalariga tayanadi. Uning tarixiy, genetik asoslari, chuqur, mustahkam falsafiy, axloqiy, ma’naviy va ma’rifiy ildizlarga bog‘lanadi. Demak, Movarounnahrda yuzaga kelgan ma’rifatparvarlik harakati insoniyatning ma’naviy borlig‘i, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy iftixon kabi chuqur antroposentrik hamda gumanistik falsafa bilan bog‘liq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalar negizida shakllandi. Abdurrauf Fitratning “Hind sayyohi bayonoti”da ham uchratamiz: “Mirzjon Sheroziy daxolati bilan Buxoro ulamosi havoshiy o‘qish, ya’ni lafz va kalom ilmiga mansub qoidalarni o‘zlashtirishga mayl va ruju’ qildilar va foydasiz ilmlar majmuasini tahqiq etishga urindilar. Shu tariqa, Buxoroda tahsil olgan boshqa turkistonliklar ham buxoroliklar bilan birgalikda nodonlik va jaholat tubsizligiga tushib qolishdi va nihoyat madaniyat osmonining yorqin yulduzi, insoniyat kitobining munavvar sahifasi sanalmish Turkistonni do’st tili aylanmaydigan va dushman qulog‘i eshitishdan sharmandali holatga tushadigan darajada kasiflikka olib kelishdi” [10,23].

XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyotining yana bir muhim xususiyati shundaki, u muayyan maqsadlarga qaratilgan, chuqur adresli hajviyotni yuzaga keltirdi. Hajv va yumorning maqsad-ob’ekti aniq, real va hayotiy edi. Ma’rifatparvar adiblarning asarlarida satira nafaqat majlis ahli dilxushligi va xushholligi uchun, balki ma’naviy chandiqlarni davolash va kamchiliklarni fosh qilish, jamiyatning axloqiy buzuqligini, undagi illatlarni ochiq ko’rsatishga qaratilgan edi. Adabiyotda hajviy talqinining kuchayishi va qizg‘in satirik motivlarning paydo bo‘lishi ijodkor shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy va tanqidiy ongi o’sganidan dalolatdir.

Yangi davr adabiyotining paydo bo‘lishidagi muhim tarixiy-genetik asoslardan biri bu zamon voqeligi va achchiq saboqlaridan o‘z vaqtida to‘g‘ri va mantiqiy xulosalar chiqarilganidadir. Bu davr she’riyatida adabiyotning yetakchi vakillari hayotning ma’muliy-panegrik mazmuni (maqtash, ulug‘lash, ta’riflash va tavsiflash)dan voz kechgan va ba’zan uni butunlay rad etgan. Zamonaviy psixoanalitik va adabiyotshunoslik ilmida bu “adabiyotning ijtimoiy mohiyati va uning asl tabiatiga qaytish” yoki adabiyotga ijtimoiy yondashuvlar nuqtai nazaridan baho berish harakati sifatida qaraladi. Bu davrda vujudga kelgan ikkinchi hodisa - lirik asarlarda mafkuraviylik va ideologik tamoyillarning kuchayishi bilan izohlash o‘rinlidir. O‘zbek adabiyotshunos olimlaridan biri U.Hamdam bu masalani haqli ravishda ko‘rib chiqib, XX asr boshlarida, jadidlar badiiy adabiyotning mohiyatini, “eng avvalo, o‘z mafkuralarini ommaga singdirish vositasi” sifatida ko‘rganini qayd etadi. Agar jadid nashrlarida chop etilgan she’rlar ko‘zdan kechirilsa, ular she’riyatni jadidchilik g‘oyalarini targ‘ibu tashviq etishga to‘la safarbar qilganiga amin bo‘lishimiz mumkin”. Agar ushbu mavzuni talqin qilishning umumiy natijasini yangi davr shoirlarining she’rlaridan izlasak, “o‘sha davrdagi ijtimoiy vaziyatdan norozilik

tuyg‘ularining barqarorligini” ko‘rish mumkin [15,17-18]. Bu nazariy qarashlar esa davr shoirlari lirik asarlarining eng muhim xarakter hamda xususiyatini belgilaydigan juda aniq, ob’ektiv xulosadir.

Milliy uyg‘onish davri shoirlarining ilhom manbai hayotning voqeiy, siyosiy va ijtimoiy hodisalaridir. Shu bilan birga, ushbu davr shoirining falsafiy, ilmiy va diniy dunyoqarashi o‘zaro ijodiy uyg‘unlikda va garmonik holatda sodir bo‘ladi, ya’ni ayrim shoir va adiblarning tashqi olam, ijtimoiy va tabiiy muhitga nisbatan qarashlari tubdan o‘zgardi. Ushbu toifadagi ijodkorlar hayotni va uning barcha unsurlarini abstrakt, mavhum va xayoliy tarzda emas, balki aniq maqsadlarga muvofiq, hayot haqiqatlari bilan bog‘liq holda tasvirlash va ifodalash yo‘llarini izlashdi. Ushbu tasvir usuli qanchalik yangi bo‘lsa, u mahalliy millat va xalqlarning azaliy madaniyat ildizlari va qadimiy e’tiqodlaridan boshlanadi, ushbu ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun yanada muhimroq rol o‘ynaydi va uning eng uzoq va chuqr ma’naviy-genetik manbalari, aslida, tarixiy o‘zlik va milliyatga borib taqaladi.

Shuning uchun yangi davri Sharq xalqlari adabiyotida ma’rifatparvar va madaniy shaxsning har bir so‘zi va uning tafakkurida, sharq she’riyatining asl javhari, so‘z va kalom mas’uliyati, tasavvufiy-irfoniy vahdat, noziklik va latofat, eng zamonaviy modernistik qarash, mantiqiy tahlil, faylasufona ijobiy tafakkur tarzi va islomiy ma’rifat ruhiyati uyg‘un holatda mujassamdir. Shu tarzda ular g‘arbona g‘oyalari va milliyatga yot bo‘lgan mafkuralarga ko‘r-ko‘rona ergashmagan. Darhaqiqat, ularning tabiatida azaliy ma’rifat uchqunlari, ma’naviyat, ilm-fan va madaniyat sohalarida tarixning olovli va jo‘shqin oqimi mavjudligini unutmaslik kerak. Ular ma’nан va ruhan ma’rifat, ilm, irshod, irfon, isloh, tajaddud kabi yangicha ideologiyalar hamda keng ko‘lamli ijtimoiy-madaniy islohotlarni qabul qilish zarurligini anglab ulgurgan edi.

Tojik va o‘zbek xalqlari yangi adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida Evropa adabiy-estetik tafakkuri ta’sirini haddan ortiq bo‘rttirish to‘g‘ri ish emas. Bu davr adabiyotida eng avvalo, zamonaviy adabiy tendensiyalarning paydo bo‘lishi, mazmun va g‘oyaviy mundarija tadriji, til va uslubning takrorlanmasligi mumtooz Sharq adabiyoti ildizlari bilan chambarchas bog‘liqlikda shakllanib kelgan. Zero, ushbu davrning eng ilg‘or tendensiysi - “ma’rifatparvarlik adabiyoti” sanalmish tushunchaning mohiyatini aniqlash masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir.

Movarounnahrdagi tojik va o‘zbek ma’rifatparvarlari o‘scha davrdagi fors, turk va tatar ziylolarining yangicha qarashlari va g‘oyalari singdirilgan asarlaridan namunalar olish imkoniyatiga ega edi. Ma’rifatparvarlik adabiyoti, xususan, XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti takomillashuvi, uning yangilanishi va evrilishida - xorijiy va mahalliy davriy matbuotning hal qiluvchi mavqeini yana bir muhim omil sifatida qarash kerak. Yangi adabiy jarayon rivoji, uning tadriji takomili va kengayishida boshqa bir tashqi omil - Eron, Turkiya va Afg‘onistonda yaratilgan bayozlar va kitoblar muhim o‘rin tutgan.

Shuningdek, ajdodlar merosiga munosabat o‘zgardi, ijtimoiy hayotdan G‘arb va rus tamadduni unsurlari keng o‘rin ola boshladi. Bu esa, adabiyotga yangi badiiy obraz va timsollar kirib kelishi hamda dunyoviy ilm-fan va madaniyatga intilish kuchayishiga sabab bo‘ldi. Bizningcha, ushbu hodisani so‘nggi yillar tadqiqotlaridagi kabi salbiy baholash, davr ijodkorlarini G‘arb madaniyati targ‘ibotchilari sifatida ayblash mantiqqa ziddir. Chunki bu narsa favqulodda holat emas, balki zamon talablari va taqozosi asosida o‘zbek, arab, turkman, qozoq, tatar, misr, fors, afg‘on va tojik adabiyotida mushtarak hodisa sifatida yuzaga keldi va XX asr boshlaridan badiiy adabiyotda keng aks etdi. Ushbu holatni adabiyot shakllanishidagi ijobiy voqeя, qadimiy va ustuvor an’analarni qayta kashf etish bosqichi, ijtimoiy ong va mafkuraning tiklanishi, adabiy

jarayonni rivojlantirish, yangi she’riy shakllarning vujudga kelishi, ana’naviy janrlarning sintezlashuvi, publitsistik va dramatik janrlarning paydo bo‘lishi, mumtoz adabiyotning ayrim lirik va epik janrlaridagi mazmun va shakl yangilanishi borasidagi muhim qadam sifatida izohlash mumkin.

Bu davrda tojik hamda fors, turk va afg'on ma'rifatparvarlik adabiyotlarida tipologik hodisa sifatida turkum mavzular; jumladan, milliy birlik, taraqqiyot, haqiqat va haqiqatparastlik, sinfiy kurashlar, milliy o'zlikni anglash va tarixiy iftixon, milliy erkinlik va ozodlik, dunyoviy ilm-fanning qadr-qiymati,adolat, jaholat va xurofotga qarshi kurash, ijtimoiy illatlarni tanqid qilish va boshqalar paydo bo‘ldi. Bu davr shoirlari lirik asarlar yaratish, ularning asosiy mazmundorligini ta'minlash bobida o‘rta asrlar mumtoz adabiyoti an'analaridan ma'lum darajada uzoqlashib, romantizmdan realizm tomon jiddiy qadamlar qo'yishdi. Ushbu mavzular silsilasi talqini haqiqat va haqiqiy hayot mohiyatini tushunib yetishga asos bo‘ldi.

Fitratning “Sayha” to‘plamida olti bandli tarkibband mavjud bo‘lib, Sadriddin Ayniy undan ikki bandini “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasiga kiritgan. “Tavofi Vatan” to‘plamida she’r ikkita sarlavha ostida, ya’ni “Ey bodi sabo!” va “Vatani man” tarzida bo‘lingan holda berilgan. Afsuski, ushbu tarkibbandning boshqa bandlari topilmadi. “Mening Vatanim” nomi bilan mashhur ushbu tarkibbandda eng avvalo ko‘zga tashlanadigan “Ey bodi sabo!” undalmasi negizida shoir muqaddas ona yurtiga bo‘lgan hayotiy va haqqoniy muhabbatini ifoda etadi. Ikkinci bandda Vatanning xorligi va ayanchli ahvoli ta’sirli ifodalangan:

*Binmo saharū azmi tavofi vatani man,
Ax-ax, chū vatan, sajdagohi jonu tani man.
Ham ma'mani osoishi izzu sharafi man,
Ham Ka'bai man, qiblai man, ham chamani man.
On k-az g'ami oshuftagii holi xarobash,
Og'ushta ba xun astu xarob ast, tani man.
To panjai zulmi digaron dod xaroshash,
Chok ast zi sarpanjai g'am pirahani man.
On k-az payi taxlisi gireboni hayotash
Derest fitodast ba do'sham, kafani man.
Rav, jabhai tabjil furo' mol ba xokash,
Zan bo'sa ba devoru darash az dahani man.
Avval birason az tarafam arzi duoro,
V-on gah binamo lobavu bargo'y: “Buxoro!” [12,23]*

Ya’ni, Ey sabo! Sen sahar chog'i mening Vatanim tavofiga yo'l ol, ul mening sajdaghimdir, jonio oromi o'sha manzilda, mening izzat va shonu sharafim posboni o'sha joy, ul makon mening Ka'bam, mening qiblam, mening chamanim, Ul joy kim, uning xarobligidan, mening tanim qonga belangan, to ki bul makon tanida o'zgalar panjasining zaxmi izi bor, mening pirohanim, mening jismim chok-chok erur, bul Vatan ozodligi va erki va hayoti men uchun asl muddaodir, garchi bu ozodlik yo'li meni qabr va kafangacha olib borsada. Ey sabo, borgil peshonangni uning to'proqlariga qo'ygil, uning devorlari va eshiklariga mening nomimdan o'pichlar bergil. Avval mendin duolar yetkaz va keyin faryodlar ila “Buxoro” deb na'ra sol!

She’rning ushbu bandida lirik qahramon qalbidagi kechinmalarni, orzu-armonlarini, yoniq tuyg‘ularini ifodalash barobarida, ko‘nglidagi uqubatga qaramay, jondan aziz Vatanini yurakdan madh etadi, vatandoshlarini uyg‘onishga va o'zlikni anglashga chorlaydi. Buxoro shoirning “men”i uchun tariqat yo‘liga yurgan solik tanlagan muqaddas ma’vo va ibodat makoni, xavfsiz

boshpana, ruhning forig‘lik manzili va shon-sharaf manbai, deb ta’riflangan. Mustamlakachi bosqinchilarning zulmi millatga ulkan qayg‘u keltirdi va g‘animlar zulmi ostida qoldirdi.

Bu she’r zamon shoirlarining ko‘plab she’rlari bilan bir qatorda milliy va tarixiy o‘zlikni anglash g‘oyasini ifoda etgan. Uning uslub bayoni an’anaviy bo‘lsa-da, g‘oya va mazmun zamon ruhiga monand. Fitratning “Vatani man” she’ri millat birdamligi va hamjihatligi, Buxoro qismatini o‘z qismati deb bilish tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan. Ikkinci bandda ohang va nutq holatining o‘zgarishi yaqqol seziladi. Shoир yuksak mahorat bilan maqtovdan xitobatga o‘tadi. U so‘zlarining zahrini barcha ijtimoiy nuqson va kamchiliklarga qarshi qaratgan. Shu jihatdan, Fitratning zamon dardlarini mujassam etgan ushbu she’rida mazkur davr turk shoirlaridan Mahmad Emin Yurdaqul (1869-1944), Tavfiq Fikret (1868-1915), Ziyo Go‘kalp (1875-1924) kabi islohotchi adiblar bilan o‘zaro adabiy aloqalari ta’siri seziladi.

Ammo tarkibbandning yangiligi faqat uning tarkibi va uslubidagina emas. She’rning boshidan oxirigacha harakat va amaliyotning dinamik holati, tasvirlash usuli, shoир yoki lirik qahramoni - “men”ining xayoliy obrazi, “andisha”ning mavhum va tasavvuriy timsoli orqali ifodalangan. Biroq bu ikki timsol bir-biriga do‘st ham, dushman ham emas, aksincha, bir-biriga tayanadi, o‘zaro yaqindir. Uslub jihatdan ushbu she’rda musohaba shakli, ikki tomon - lirik qahramon va “mutafakkir”ning maxfiy savol-javobi kuzatiladi:

*Dishab ba kunji g’amkadai tangu tori man,
Otash girifta bud dili beqarori man.
Bo girya doshtam qadare hasbi hol, lek
Andesha - on rafiqi shafoqatshiori man,
Bo qomati xamidavu bo chehrai anif,
Doxil shudu nishast hame dar kanori man.
Gufto: “Chū gunaū, ba chū korū va hol chist,
Bozat chunin rasida malolu kadar zi kist”? [12,29]*

Mazmuni: *Kecha mening qorong‘u va torgina kulbamda qalbim beqarorligi, yig‘i bilan dardlashayotganimda, “andisha” mening shafoqatli do‘stim sifatida g‘amgin chehra va egilgan qomat bilan oldimga kirib keldi va mendan hol va ahvol so‘radi.*

Shoир lirik qahramonining ruhiy holatini tashxis san’ati orqali o‘ziga xos yondashuv va uslublar bilan ochib beradi. Ma’rifatparvar shaxs - “men” nidosining ikkinchi tasavvuriy qahramon-“andisha”dan farqi shundaki, o‘zining ritorik so‘roqlari mazmunli va mo‘jazligi bilan ilm-fan va madaniyatga intiluvchi tipologik obrazni mujassam etgan. “Andisha”-zamon shoirlari uchun tarixiy-azaliy-“mushki Xo‘tan”, “bodi sabo”, “nakhat”, “piri murshid”, “piri ma’nnaviy”, “piri hakim” kabi ramziy xarakterga ega. Davr she’riyatida aynan shu kabi timsollarga tayanildi. Bunda shoир hayot haqiqatlaridan xulosa chiqarib, muayyan shaxsga emas, balki “fikr”, “xayol orzu” va “tafakkur”ga murojaat qiladi. Lirik qahramon hamdardini avval “yoniga o‘tqazib”, unga olam taraqqiyoti haqida arz qiladi va quyidagi javobni oladi:

*Insof deh, mulohiza kun, binshin, bigo ‘y,
K-az qavmi mo baroi chū gardond baxt ro ‘y?!
“Andesha” z-in savoli man aftod dar shigift,
Xandidu girya kardu sukute namudu guft:
Alg’ofil az daqoiqi qonuni zindagū,
V-ey monda peshi chashmi tu sirri jahon nuhuft.
Donū, ki dahr ma’razi sa’y astu ijtihod,
In jo namedihand ba kas obu noni muft.*

*Har kas ba qadri har chū biko ‘shad, k-az o ‘ barad,
Gandum fishonda, gandumu jav kishta, jav barad [12,29].*

Mazmuni: *Insof ila mulohaza qil, o ‘tirgin ayt, nima uchun bizning qavmimizdan baxt yuz o ‘girdi.* “Andisha” mening bu savolimdan hayratda qoldi, kuldiyu, yig ‘ladi va ayladi sukut. Nihoyat javob qaytardi, ey turmush oniy lahzalarining g ‘ofili, ey, sening ko ‘zlarining dan pinhon qolgan dunyo sirlari, bilurmisan bu olam ijтиҳод ва sa ‘yu harakatlar zaminidir, bu joyda kishiga tekinga nonu suv bermaslar. Har kim harakatlari evaziga bu dunyodan o ‘z sa ‘mini olar, bug ‘doy ekkan, bug ‘doy o ‘rar, arpa ekkan, arpa.

Fitrat adabiy-estetik tafakkurida yangicha mazmunning “andisha” timsoli orqali ifodalanganida ko‘rinadi. Shoir zamonning eng muhim va dardli mavzulariga, Donish, Shohin, Savdo, Mirzo Hayit Sahbo, Ajziy, Asiriy kabi shoirlar asarlarida aks etgan adolatsizlik va tengsizlik, mang‘itiya amirligi davridagi tanazzul, turg‘unlik va axloqiy buzuqlik holatlari, Buxoro xalqining nochorligi va qashshoqliklarga dosh berib yashaganlaridan nadomatlarini yuksak mahorat bilan tasvirlagan.

Fitrat poeziyasi nafaqat o‘zining zamonaviy she’riyat talablariga, balki jahon adabiyoti durdonalari mezonlariga ham javob bera oladi. S.Tabarovning fikricha, bu she’riyat sabk va uslub jihatidan Ajziy, Ayniy, Munzim, Hamdiy, Sarvar va boshqalar poeziyasidan ma’lum darajada farq qiladi [165,188]. Muhaqqiq ushbu tafovutni shoirning ijodiy muhiti hamda ma’naviy, adabiy, siyosiy va ijtimoiy hayotiga, ya’ni Fitratning Turkiyada tahsil olgan yillariga zamonaviy turk adabiyotidan ta’sirlanishi bog‘laydi. Shu munosabat bilan uning lirkasida zamonaviy usmonli turk va Evropa shoirlari poeziyasidagi g‘oyalari mumtoz poetikaga xos shakl va o‘ziga xos uslubda namoyon bo‘ladi. Shoir nazmida ramziylik, emotsiyalizm va psixanaliz aspektlari kuzatiladi. Tarkibbandagi “andisha” ramziy obrazi, tashxisning mukammalligi, she’rdagi badiiy-poetik qiyamatning yuqoriligi ham buni tasdiqlaydi.

Agar Fitrat bitta tarkibbanda to‘liq “andisha”ga tayangan bo‘lsa, Ajziy kichik bir she’riy parchada o‘ta muhim va mavhum so‘zlar qatorini mohirlik bilan izma iz tizimlashtiradi:

*Ey fikri bosavod, biyo, anjuman kunem!
Ey aql, yor shav, ki salohi Vatan kunem!
Ey guftugo ‘, biyo, zi maorif suxan kunem!
Ey justujo ‘, rafiq shav, og ‘ozi fan kunem!
Andesha pesh o, zi ulumi jadid go ‘y,
Asri nav ast, tarki xayoli kuhan kunem! [10,8]*

Mazmuni: *Ey savodli fikr, kelgin majlis qilaylik, ey aql, bizga yor bo ‘lgin, Vatan salohiyati yo ‘lida jadal qilaylik, ey so ‘z menga hamdam bo ‘l, ma ‘rifatdan so ‘zlaylik, ey izlanish kelgin ilmu fanga yo ‘lboshchi bo ‘laylik, andisha yaqin kel, yangilanish ilmidan xabardor qil, bu yangi asrdir, eskilik xayolini tark aylaylik.*

Shoir davr mafkurasining yangilanish ashyosi bo‘lgan “fikr”, “aql”, “suhbat”, “izlanish”, “andisha” ramziy belgilari asosida yangi milliy hayot haqidagi orzularini ifodalaydi. Ajziy so‘z nisbatlarini birlashtirish vositasida “sog‘lom tafakkur”siz jamiyatni, Vatan obodligini “sog‘ aql”siz, ma‘rifat yuksalishini, “mashvaratsiz”, ta’lim yutuqlarini, “izlanishsiz”, yangilanish va yangi hayot yaratishni “andishasiz”, “eski aqidalardan qutilishni esa “yangilanishlarsiz” tasavvur qila olmaydi.

Kuzatish va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotchilarning bu boradagi qarashlari haqiqatga yaqinroq, biroq boshqa tomondan, ayrim shoirlarning sayru sayohatlari, ularning badiiy tafakkur tadriji, dunyoqarashi ko‘lamiga bog‘liq holda yangi she’riy shakllarning paydo bo‘lishiga ham

muayyan zamin yaratildi. Jumladan, Abdurrauf Fitrat lirik asarlaridagi uning o‘zagagina xos poetik chizgilarni turk tanzimat davri adabiyotining ta’sirisiz tasavvur qilishning iloji yo‘q. Estetik ong va tanqidiy qarashlarini rivojlantirishga bilvosita ta’sir ko‘rsatgan fransuz va nemis adabiyoti hamda bevosita Eron adabiyotidagi muhim adabiy hodisalar ta’sirida bo‘lgan Mirzo Siroj Hakimning hayot va ijodiy faoliyati borasida ham xuddi shunday fikrlarni ilgari surish mumkin. Poeziyada yangi mavzular silsilasi, g‘arbona motiv va ritmlar, adabiy janrlarning konstruktiv va qolipiy tuzilishidagi jiddiy o‘zgarishlar maxsus shakllarini taqozo etganligi tabiiy holat hisoblanadi.

Zero shoirlar jamiyatning siyosiy ongini yuksaltirish maqsadida va ushbu mas’uliyatni o‘z zimmalariga olganliklari bois, ham muntazam siyosiy, ijtimoiy, maishiy hayotda uchrab turadigan so‘z va istilohlaridan foydalanishga majbur bo‘lishdi. Boshqa tomondan, hurfikrli ijodkor, uning hurriyatparstlik fitrati, erkin fikrlovchi insonning yangi davrdagi to‘zonlar singari shov-shuvli va tug‘yonli uyg‘oq qalbidan kelib chiqadigan his-tuyg‘ular to‘lqinlari, shoirona falsafiy aqidalari, hayotning og‘riqli nuqtalarini fosh etishga urinish, yangilikka intilish va izlanishlar, uning hasratlari va qayg‘ulari mumtoz fors-tojik adabiyotining qat‘iy adabiy shakllariga sig‘madi. Shu bois, ular an’naviy she’riy qoliplarni buzgan holda, zamon haqiqatlarini oshkor etishga intiladilar. She’rda shoир uchun uning qofiyalanish tizimining an’naviy ustuvor shaklidan ko‘ra, qalbning yashirin dardlari, haqiqat tuyg‘usi, fikr teranligi, ruhiy holat ifodasi, mazmun va mavzuni aniq ifoda etish, jamiyat illat va nuqsonlarini fosh etish muhimroqdek. Ushbu she’rning yana bir muhim jihat shundaki, unda ilk satrlardanoq *qalam, ko‘z, yurak, qalb, sabr, toqat, yig‘i, maktub va she’rga* murojaat qilinadi va bu jihat yangi ijodiy tamoyillarning she’riy satrlarga tadrijiy ravishda o‘tayotganligidan dalolat beradi va bu borada milliy she’riyatga Evropa, Turkiya hamda Eron shoirlari she’riyatining muayyan darajadagi ta’siri ham seziladi.

Iqtiboslar/Сноски/References/Kaynaklar:

1. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi.-Toshkent: Fan, 2005.
2. Ahmadi Donish. Navodir-ul-vaqoe’. Muhammironi mas’ul: R.Hodizoda, A.Devonaqulov. Iborat az du kitob. Kitobi yakum. - Dushanbe: Donish, 1988. - 286 sah.; Kitobi duvvum. - Dushanbe: Donish, 1989. - 370 sah.
3. Boltaboev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. // Filol.f.d. dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent: 1996.
4. Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. //Ilmiy tadqiqiy maqolalar. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.-Toshkent: 2007.
5. Inomxo‘jaev R. Afg‘oniston ma’rifatparvarlik adabiyoti ocherklari. - Toshkent: ToshDSHI, 1999. -189 b.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
7. Kunits J. Dawn over Samarkand. The rebirth of Central Asia. - New York. 1935. P.23
8. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - Toshkent: Ma’naviyat, 2004. - 461 b.
9. Rajabov M. Islom: jadidiya va inqilob. - Dushanbe: Donish, 1997. - 245 sah.
10. Sa’diev S. Markazi adabii Samarqand dar shohrohi ta’rix. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. -398 sah.
11. Tabarov S. Jahoni andeshahoi Abdurraufi Fitrat. Jildi I - Dushanbe: Donish, 2008. - 714 sah.
12. Fitrat A. Sayha. She’rhoi milliy. - Istanbul: 1329 h / 1911m. - 16 b.
13. Shukurov M. Nigohe ba adabiyoti tojikii sadai XX. - Dushanbe: Payvand, 2006. - 455 sah.

14. Holdsworth. M. Turkestan in the nineteenth centure. A brief History of the khanatos of Bukhara, Kokand and Khiva. Oxford, 1959. -P.10
15. Wheeler G. The modern histori of Soviet Central Asia. - London: Weidenfeld and Nicolson, 1966. -P. 43
16. Hamdamov U. XX asr she’riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari. DDA. - Toshkent: 2017. - 67 b.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:


@turkologiya1

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone and e-mail address of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in Uzbek, Turkish and English.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK
TADQIQOTLAR” XALQARO
JURNALINING AXBOROT
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy, ilmfanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o'tkazilgan sammitida ko'zda tutilgan o'zaro aloqalarni jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiytadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta'sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiytadqiqot ishlarining natijalarini e'lon qilishga mo'ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e'tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O'zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Elektron pocha:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



**MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN
TALABLAR:**

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otaismi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefoni va e-mail adresi to‘liq keltirilishi kerak.
 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
 5. Har bir maqola boshida o‘zbek, turk va ingлиз tillarida annotatsiya bo‘lishi lozim.
 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
 7. Annotatsyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
 - Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
 - Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalarga jurnalda chop etiladi;
 - Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
 - Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

БЮЛЛЕТЕНЬ МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Туркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ НАПРАВЛЕНИЯМ:

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандинском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, вверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, телефон и адрес электронной почты автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи должна быть аннотация на узбекском, турецком и английском языках.
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
 - Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и plagiat информации и доказательств, представленных в статье;
 - Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
 - Нерекомендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğretim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dahil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvari, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Internet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyülüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon ve e-posta adresi eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında Özbekçe, Türkçe ve İngilizce özet bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satırda, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
 - Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
 - Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
 - Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
 - Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Prof. J.Eltazarov

R. Shokirov



ISSN 2992-9229

2024-yil 29-oktabrda tahriri-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2024-yil 31-oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i –9.

Adadi 15 nusxa. Buyurtma № 174

SamDU tahriri-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229